



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023-yil 1-mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bунyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-mart holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **20685** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **17493** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi **88,7** foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **87,3** foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda.**

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2023- yil mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023	584
2022	978
2021	800
2020	587
2019	1 052

**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

137



3,8 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

196



3,6 %

Savdo

12



5,2 %

Axborot va aloqa

100



3,3 %

Sanoat

7



1,5 %

Tashish va saqlash

10



3,0 %
Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

20



1,2 %

Qurilish

54



4,3 %

Yashash va ovqatlanish

48



1,3 %

Boshqa turlar

2023- yil mart oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda **-394** taga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar **-262** taga, oilaviy korxonalar **-112** taga kamaygan.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	146	2,6 %	Zarbdor t.	41	3,8 %
Arnasoy t.	20	2,2 %	Mirzacho‘l t.	24	3,2 %
Baxmal t.	22	1,4 %	Zafarobod t.	16	2,6 %
G‘allaorol t.	111	5,6 %	Paxtakor t.	24	2,4 %
Sharof Rashidov t.	70	2,6 %	Forish t.	28	2,0 %
Do‘slik t.	10	1,1 %	Yangiobod t.	10	2,1 %
Zomin t.	62	3,6 %			

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023		20 685
2022		23 325
2021		21 379
2020		17 676
2019		15 213

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2023- yil 1- mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga (**23 325** ta) nisbatan **-2 700** taga kamayganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli kamayishi bilan ifodalash mumkin: savdo – **5 811** tadan **5 515** taga (kamayish **-296** ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4 095** tadan **3 620** taga (kamayish **-475** ta), sanoat – **3 770** tadan **2 993** taga (kamayish **-777** ta).

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	5 537	26,8 %	Zarbdor t.	1 066	5,1 %
Arnasoy t.	894	4,3 %	Mirzacho'l t.	756	3,7 %
Baxmal t.	1 626	7,9 %	Zafarobod t.	607	2,9 %
G'allaorol t.	1 992	9,6 %	Paxtakor t.	1 021	4,9 %
Sharof Rashidov t.	2 713	13,1 %	Forish t.	1 410	6,8 %
Do'stlik t.	889	4,3 %	Yangiobod t.	467	2,3 %
Zomin t.	1 707	8,3 %			

2023-yil mart holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni

2023	571
2022	949
2021	763
2020	561
2019	1 009

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash




Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2023-yil fevral oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **571** ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **571** ta;
- yirik korxonalar.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	143	3,0 %	Zarbdor t.	40	4,5 %
Arnasoy t.	20	2,7 %	Mirzacho‘l t.	24	4,0 %
Baxmal t.	20	1,5 %	Zafarobod t.	16	3,4 %
G‘allaorol t.	105	6,1 %	Paxtakor t.	24	2,9 %
Sharof Rashidov t.	69	2,9 %	Forish t.	28	2,3 %
Do‘slik t.	10	1,4 %	Yangiobod t.	10	2,7 %
Zomin t.	62	4,4 %			


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023	17 570
2022	20 118
2021	18 164
2020	14 519
2019	12 186

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- mart holatiga **17 570** taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **144,2** foizni tashkil etdi (**5 384** ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **31,4** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **20,4** foiz, sanoat – **17,0** foiz, qurilish – **9,3** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,1** foiz, tashish va saqlash – **2,7** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,4** foiz, axborot va aloqa – **1,2** foiz, boshqa turlari – **9,5** foiz.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 827	27,5 %
Arnasoy t.	751	4,3 %
Baxmal t.	1 359	7,7 %
G'allaorol t.	1 723	9,8 %
Sharof Rashidov t.	2 390	13,6 %
Do'stlik t.	713	4,1 %
Zomin t.	1 415	8,1 %
Zarbdor t.	884	5,0 %
Mirzacho'l t.	605	3,4 %
Zafarobod t.	471	2,7 %
Paxtakor t.	842	4,8 %
Forish t.	1 217	6,9 %
Yangiobod t.	373	2,1 %

2023- yil mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

137



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

196



Savdo

12



Axborot va aloqa

100



Sanoat

7



Tashish va saqlash

10



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

20



Qurilish

54



Yashash va ovqatlanish

35



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lolmigi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar oyida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan **948** tadan **571** taga (kamayish **-377** taga), tashish va saqlash – **10** tadan **7** taga (kamayish **-3** taga) kamaydi.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	143	3,0 %	Zarbdor t.	40	4,5 %
Arnasoy t.	20	2,7 %	Mirzacho‘l t.	24	4,0 %
Baxmal t.	20	1,5 %	Zafarobod t.	16	3,4 %
G‘allaorol t.	105	6,1 %	Paxtakor t.	24	2,9 %
Sharof Rashidov t.	69	2,9 %	Forish t.	28	2,3 %
Do‘slik t.	10	1,4 %	Yangiobod t.	10	2,7 %
Zomin t.	62	4,4 %			

2023-yil 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

2023	17 493
2022	20 039
2021	18 086
2020	14 470
2019	12 146


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (**27,4 foiz**), Sharof Rashidov (**13,7 foiz**), G‘allaorol (**9,8 foiz**), Zomin (**8,0 foiz**) va Baxmal (**7,8 foiz**) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 788	27,4 %	Zarbdor t.	881	5,0 %
Arnasoy t.	749	4,3 %	Mirzacho‘l t.	601	3,4 %
Baxmal t.	1 357	7,8 %	Zafarobod t.	469	2,7 %
G‘allaorol t.	1 718	9,8 %	Paxtakor t.	839	4,9 %
Sharof Rashidov t.	2 388	13,7 %	Forish t.	1 214	6,9 %
Do‘stlik t.	708	4,0 %	Yangiobod t.	373	2,1 %
Zomin t.	1 408	8,0 %			

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda**

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	280
Arnaso'r t.	335
Baxmal t.	421
G'allaorol t.	375
Sharof Rashidov t.	433
Do'stlik t.	176
Zomin t.	249
Zarbodor t.	209
Mirzacho'l t.	180
Zafarobod t.	136
Paxtakor t.	126
Forish t.	563
Yangiobod t.	137



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'yangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	839
Arnasoy t.	104
Baxmal t.	155
G‘allaorol t.	341
Sharof Rashidov t.	438
Do‘stlik t.	126
Zomin t.	250
Zarbdor t.	187
Mirzacho‘l t.	113
Zafarobod t.	87
Paxtakor t.	144
Forish t.	161
Yangiobod t.	48



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati **105,0** foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning **17,5** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – **95,1** foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan o‘sish **79,5** foiz), **3,2** foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish **73,6** foiz), **1,4** foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish **89,1** foiz) va **0,4** foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish **75,0** foiz) tashki etgan.

Ishlab chiqarish sanoati

2845

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

95

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

41


Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

12

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	645
Arnasoy t.	57
Baxmal t.	71
G‘allaorol t.	144
Sharof Rashidov t.	241
Do‘slik t.	52
Zomin t.	108
Zarbdor t.	80
Mirzacho‘l t.	43
Zafarobod t.	22
Paxtakor t.	77
Forish t.	66
Yangiobod t.	23



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi **53,3** foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **77,2** foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi **26,7** foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **77,1** foizga kamaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi **20,0** foiz ulushni va **84,5** foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

435

Fuqarolik
obyektlarini qurish

326

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari


868

Bino va
inshootlar qurish

2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 669
Arnasoy t.	174
Baxmal t.	453
G'allaorol t.	518
Sharof Rashidov t.	790
Do'stlik t.	214
Zomin t.	492
Zarbdor t.	214
Mirzacho'l t.	149
Zafarobod t.	152
Paxtakor t.	313
Forish t.	268
Yangiobod t.	109



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **26,7** foizi yoki **5 504** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **63,8** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **99,0** foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **25,5** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **86,4** foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash yo'nalishida **10,7** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **93,8** foizni tashkil etdi.

591

Avtomobil
va mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosini va ularni
ta'mirlash

1 408

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo


3 516

Avtomobil
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

2023- yil 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	398
Arnasoy t.	16
Baxmal t.	76
G‘allaorol t.	98
Sharof Rashidov t.	205
Do‘slik t.	53
Zomin t.	105
Zarbodor t.	72
Mirzacho‘l t.	52
Zafarobod t.	32
Paxtakor t.	72
Forish t.	48
Yangiobod t.	16



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 124,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,4 foiz ulushini tashkil etdi.

95

Yashash bo‘yicha xizmatlar

1 148

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Toshkent sh.	117
Arnasoy t.	4
Baxmal t.	16
G'allaorol t.	22
Sharof Rashidov t.	14
Do'stlik t.	5
Zomin t.	15
Zarbdor t.	9
Mirzacho'l t.	5
Zafarobod t.	4
Paxtakor t.	13
Forish t.	6
Yangiobod t.	3



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **10,3** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **92,3** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **26,6** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **63,9** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning **63,1** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **100,7** foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	165
Arnasoy t.	3
Baxmal t.	21
G'allaorol t.	31
Sharof Rashidov t.	20
Do'stlik t.	8
Zomin t.	31
Zarbdor t.	10
Mirzacho'l t.	10
Zafarobod t.	8
Paxtakor t.	12
Forish t.	8
Yangiobod t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – **335** ta yoki **1,6** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,8 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **103,7** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **5,1** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **65,4** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,1** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **63,6** foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	180
Arnasoy t.	12
Baxmal t.	25
G‘allaorol t.	29
Sharof Rashidov t.	95
Do‘slik t.	25
Zomin t.	27
Zarbodor t.	23
Mirzacho‘l t.	11
Zafarobod t.	7
Paxtakor t.	25
Forish t.	6
Yangiobod t.	4



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning **2,3** foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati **77,2** foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati **79,6** foizni; pochta va kuryerlik yo‘nalishi **66,7** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni **100,0** foizni tashkil etdi;

suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni mayjud emas.




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy

shakli bo'yicha umumiylumot

2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarjni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	119	3,1 %	Zarbdor t.	37	6,0 %
Arnasoy t.	16	3,1 %	Mirzacho'l t.	22	5,3 %
Baxmal t.	19	1,8 %	Zafarobod t.	11	3,8 %
G'allaorol t.	41	4,8 %	Paxtakor t.	12	2,7 %
Sharof Rashidov t.	56	2,9 %	Forish t.	28	3,6 %
Do'stlik t.	9	1,6 %	Yangiobod t.	10	5,3 %
Zomin t.	48	5,4 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan **17 570** ta tijorat korxona va tashkilotlarining **12 356** tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o‘sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdoda – **95,4** foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **93,1** foiz, sanoat – **80,8** foiz, qurilish – **79,6** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	3 800	83,0 %	Zarbdor t.	613	94,3 %
Arnasoy t.	524	110,8 %	Mirzacho‘l t.	418	92,9 %
Baxmal t.	1 078	117,6 %	Zafarobod t.	288	101,4 %
G‘allaorol t.	853	98,5 %	Paxtakor t.	450	99,3 %
Sharof Rashidov t.	1 924	78,2 %	Forish t.	783	93,8 %
Do‘slik t.	546	90,1 %	Yangiobod t.	187	85,0 %
Zomin t.	892	91,4 %			

Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniyligini shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


2023- yil mart oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **15** taga, sanoat **8** taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	9	1,8 %	Zarbdor t.	1	0,8 %
Arnasoy t.	4	2,2 %	Mirzacho‘l t.	2	1,5 %
Baxmal t.	1	0,5 %	Zafarobod t.	4	3,8 %
G‘allaorol t.	59	9,5 %	Paxtakor t.	3	1,6 %
Sharof Rashidov t.	1	0,5 %	Forish t.		
Do‘slik t.			Yangiobod t.		
Zomin t.	4	1,2 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o‘sish surʼati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **24,0 foizga** kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘sish surʼatlarining o‘tgan yilga nisbatan kamayishiga savdo (**85,5 foiz**), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (**75,0 foiz**), sanoat (**65,1 foiz**), tumanlar kesimida esa – G‘allaorol (**98,7 foiz**), Baxmal (**97,4 foiz**) va Paxtakor (**77,8 foiz**) tumanlari ta’sir ko‘rsatmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	500	67,4 %	Zarbdor t.	133	61,0 %
Arnasoy t.	181	113,8 %	Mirzacho‘l t.	136	70,5 %
Baxmal t.	186	97,4 %	Zafarobod t.	105	64,8 %
G‘allaorol t.	622	98,7 %	Paxtakor t.	193	77,8 %
Sharof Rashidov t.	194	61,4 %	Forish t.	368	66,9 %
Do‘stlik t.	74	61,7 %	Yangiobod t.	147	77,4 %
Zomin t.	322	73,2 %			

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023-yil mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birlgiligidagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	15	3,3 %
Arnasoy t.	2	1,8 %
Baxmal t.		
G‘allaorol t.	5	2,3 %
Sharof Rashidov t.	12	4,9 %
Do‘slik t.		
Zomin t.	10	5,7 %
Zarbdor t.		
Mirzacho‘l t.		
Zafarobod t.		
Paxtakor t.	9	4,7 %
Forish t.		
Yangiobod t.		

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra 2021- yilning mos davriga nisbatan **305** taga ko'paygan.


Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – **258** tadan **459** taga (o'sish **201** taga), sanoatda – **604** tadan **658** taga (o'sish **54** taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **215** tadan **235** taga (o'sish **20** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	453	88,5 %	Zarbdor t.	114	104,6 %
Arnasoy t.	25	166,7 %	Mirzacho'l t.	36	80,0 %
Baxmal t.	62	119,2 %	Zafarobod t.	65	87,8 %
G'allaorol t.	217	102,4 %	Paxtakor t.	190	114,5 %
Sharof Rashidov t.	247	86,4 %	Forish t.	30	73,2 %
Do'stlik t.	84	81,6 %	Yangiobod t.	16	55,2 %
Zomin t.	174	127,9 %			

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
2023-yil mart holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa

Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'lijni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'limlari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1	1,7 %
Arnasoy t.		
Baxmal t.	1	10,0 %
G'allaorol t.		
Sharof Rashidov t.		
Do'stlik t.		
Zomin t.		
Zarbdor t.		
Mirzacho'l t.	1	20,0 %
Zafarobod t.		
Paxtakor t.		
Forish t.		
Yangiobod t.		


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokida korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni **68** ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyl sonining **37,6** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi **20,4** foiz), Xitoy (ulushi **22,1** foiz) va Angiliya (ulushi **14,4** foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	58	87,9 %	Zarbdor t.	4	100,0 %
Arnasoy t.	10	125,5 %	Mirzacho'l t.	5	100,0 %
Baxmal t.	10	100,0 %	Zafarobod t.	6	60,0 %
G'allaorol t.	12	66,7 %	Paxtakor t.	8	100,0 %
Sharof Rashidov t.	18	120,0 %	Forish t.	26	83,9 %
Do'stlilik t.	7	87,5 %	Yangiobod t.	4	30,8 %
Zomin t.	13	81,3 %			

2023- yil mart holatiga ko‘ra, birlikda

Jizzax viloyati

3

BOSHQALAR

3

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantrish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘sningchilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan **116** tasi qo‘sma korxonalar, **65** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

65 Jizzax viloyati **116**

19 Jizzax shahri **39**

4 Arnasoy tumani **6**

2 Baxmal tumani **8**

5 G‘allaorol tumani **7**

8 Sh.Rashidov tumani **10**

4 Do‘stlik tumani **3**

5 Zomin tumani **8**

1 Zarbdor tumani **3**

3 Mirzacho‘l tumani **2**

5 Zafarobod tumani **1**

1 Paxtakor tumani **7**

8 Forish tumani **18**

Yangiobod tumani **4**

2023-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

12

18

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



6

7

Qurilish



2

5

Tashish va saqlash



2

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



3

4

Boshqa turlar



qo'shma korxonalar

30

71

Sanoat



8

9

Savdo



2

2

Yashash va ovqatlanish



1

Axborot va aloqa



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish
bo‘limi
Tel.: (72) 221-51-24